NAJIB MAHFUZNING “QALAMPIR” VA ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Hamidova Gulnoza Sur‘at qizi

TDSHU Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik

fakulteti Arab filologiyasi kafedrasi

2-kurs talabasi +998997431449

suratabdullayev306@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.d dots. **D.Z.Muhiddinova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab adabiyoti yetuk namoyondalaridan biri, “Nobel” mukofoti sovdindori Najib Mahfuzning “Qalampir” hikoyasi va adabiy merosi jihatidan katta ahamiyatga, o‘zbek hikoyanavisligida alohida o‘ringa ega bo‘lgan Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ijtimoiy hayotdagi muammolarning tasvirlanishligidagi o‘xshashligi va g‘oyaviy jihatdan yakdilligi badiiy jihatdan tahlil qilinadi va ikki adib hayotidan kerakli malumotlar beriladi.

Kalit so’zlar: Muallif tili, ijtimoiy muammolar, poraxo‘r amaldorlar, qahvaxona, , og‘ir hayot tarzi, o‘g‘rilik, maqollar, hikoya.

KIRISH. Barchamizga ma’lumki, har bir xalq mustaqillikka erishguncha, turli qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, yuqori tabaqa vakillarining quyi qatlam insonlariga qilgan adolatsiz munosabatlari esa barcha xalqlar tarixidagi og‘riqli nuqtalardan biridir. Xalqlarning ijtimoiy hayotining og‘irligi, davlat odamlarining unvon va mansabini suiiste’mol qilishi o‘sha qiynalgan aholi orasida yashab ijod qilgan har bir shoir-u yozuvchilarni junbushga keltirishi tabiiy holat. Mana shunday tarixning oddiy xalq boshiga tushgan qora kunlarini yorituvchi asarlardan biri bu Najib Mahfuzning “Qalampir” hikoyasidir.

ASOSIY QISM. Najib Mahfuz 1911-2006-yillar oralig‘ida yashagan Misr yozuvchilaridan biridir. Hayoti davomida nafaqat Misr adabiyoti, balki jahon adabiyot xazinasiga ham salmoqli hissa qo‘sha olgan adib “Nobel” mukofotiga sazovor bo‘lgan. “Bema’ni shivirshivir” novellalar to‘plami jamiyatdagi boylik va qashshoqlik o‘rtasidagi ziddiyat haqida bo‘lsa, romantik-tarixiy romanlarini (“Taqdir o‘yini”, “Radobis”, “Fiv kurashi”) yozgach, u yana ijtimoiy mavzuga murojaat qilgan. “Yangi Qohira” romanida Ikkinchi jahon urushidan avvalgi Misr yoshlarining hayoti aks ettirilgan. “Nil ustidagi safsata” va “Miramor pansionat”, “Yomg‘ir ostidagi sevgi” romanlarida Misrdagi 1952-yildagi inqilob va undan keyin yuzaga kelgan muammolar tasvirlangan. “O‘g‘ri va it” romani hamda “Ilohiy dunyo” , “Badnom xonadon”, “Qora mushuk qovoqxonasi” kabi bir qancha novellalar to‘plamlari muallifi bo‘lgan Najib Mahfuz o‘zidan katta ahamiyatli adabiy meros qoldirgan va uning bir qancha asarlari o‘zbek tilida chop etilgan. Asarlari orasida “Qalampir” hikoyasi hajm jihatidan kichik bo‘lsa ham, Najib Mahfuz ijodida mavzusining haqqoniy va realistik jihatdan yoritib berilganligi uchun kitobxonlarning e’tiboridan tushmay kelmoqda. Bu asar nomlanishi qahvaxonada ertadan kechgacha yugur-yugur bilan tinmaydigan Taha Sankar ismli, ammo tevarak-atrofdagilar

uning erta sahardan to tun yarmigacha stollar orasida ivirsib, yugurgilab, lov–lov cho‘g‘ tashishi, olovday tez, sapchib turadigan, har burchakda hozir-u nozir bo‘lgani uchun[1]

“qalampir” deb nomlagan o‘n ikki yoshlar chamasidagi bolaga bog‘liq. Hikoya muallif tilidan bayon qilingan bo‘lib, asarda Qalampirning qahvaxonada kun bo‘yi tinmay ishlashi va bu uchun atigi bir qirsh qo‘lga kiritganligi sabab o‘zini omadli deb hisoblashidan ayonki, u tengi bolalar undan ham og‘ir sharoitda kun kechiradi. U yerga talabalar tashrif buyurib, turli voqealarni muhokama qilishadi, kunlardan bir kun gapdan gap chiqib pora olgan amaldorning qamalishi haqidagi yangilikka borib taqaladi, shu payt ulardan biri quyidagi gaplarni aytadi:

“Mansabdorlargina oladi deysanmi porani… boshqalarchi, e, bu hammaga ayon-ku! Agar mamlakatda hamma adliya xodimlari chinakam odil bo‘lsa bormi, qasrlar xuvullab qolib, qamoqxonalar to‘lib-toshib ketardi, ha![2]”

Asarda qahvaxonaga talabalar tez-tez to‘planib kelishlari, chilim tortib, davlatdagi voqealarni o‘z bilganlaricha muhokama qilishlari, adolatsizlig-u xo‘rliklarni ochiq-oydin bilib turishsa ham, amalda hech nima qila olmasliklari o‘sha davrdagi yupun bo‘lsa ham, ammo ziyoli talabalarning kunlari qimor o‘ynash bilan o‘tishi qalamga olingan. Yosh bolalarning qahvaxonada yugurdaklik qilishi, talabalarning esa tamaki chekish va qimor o‘ynashga ruju qo‘yishlaridan davlatning kelajagi ne ham bo‘lardi? Fursatdan foydalangan ayrim “davlatning ravnaqini o‘ylaydigan” amaldorlarning cho‘ntaklarining qappayishiga shular emasmi sabab? Bahslarning esa qizigandan qizishi hikoya qahramoni Qalampirga yoqar edi:

Zap topib gapiryapti: “O‘g‘rilar mamlakati!”, “O‘g‘rilar qonun homiyligida!” Qalampir buni yaxshi biladi, tubdan tushunadi, o‘zi ham o‘g‘ri emasmi axir… Onasi ham, pista sotib kelayotganida, tor ko‘chada adashib yurgan jo‘jaxo‘rozni… qo‘yniga joylab qaytadi… Otasi-chi, kunduzi bodomfurush, kechasi esa tomma-tom sakrab, birovlarning arqondagi kirlarini…[3]

Demak, Qalampir ham, uning onasi ham, uning otasi ham o‘g‘ri, lekin ularni bu ishga undagan sabab nimada? Tirikchilikning o‘g‘ir zarbasi emasmi? Davlatning qo‘ynida qonni so‘rayotgan zulukdek tirmashib olgan amaldorlar, pora olish evaziga biror-bir ish qilishni o‘ziga maqsad qilib olgan jirkanch kimsalar sabab ro‘zg‘orning qiyinchiliklariga dosh berish uchun uyida biror burda qolmaganida o‘g‘rilik qilish orasida farq bor emasmi? Qalampir ishdan chiqib, uyiga kelayotganida otasini o‘g‘rilikda ayblashib, qamoqqa olishadi, va yig‘layotgan onasiga

qahvaxonadagi suronli gurunglarni eslab, bu yurt – o‘g‘rilar yurti ekanini, o‘g‘rilikka qonun o‘zi homiylik qilishini onasiga hikoya qilib berdi… Onasining g‘ashi kelib, “bas qil!”, deya jerkib berdi. Qalampir esa hayajonda gapiraverdi. Onasidan bir tarsaki yegandan keyingina uyquga ketdi.[4]

Hikoyaning yuqoridagi parchasi bilan tanishib chiqar ekanmiz, alamda turgan onaning begunoh, oq-u qorani tanishga ulgurmagan o‘smir farzandiga tarsaki tushirishga nima undaganini tushunib yetishimiz qiyin emas. O‘g‘ir hayot tarzi, har doim tahlikada yashash, kambag‘alchilik va undagi xo‘rliklar, ijtimoiy hayotdagi notenglik, amaldorlarning tazyiqlari-barcha-barchasi xalqimiz tili bilan aytganda, hiqildog‘iga kelgan va mana shu voqeadan xo‘rligi

[1] Najib Mahfuz. “Qalampir” hikoyasi. B-1.
[2] Najib Mahfuz.. “Qalampir” hikoyasi. B-1.
[3] Najib Mahfuz. “Qalampir” hikoyasi. B-2.
[4] Najib Mahfuz. “Qalampir” hikoyasi. B-2.

kelib, jahli chiqqan paytda farzandining o‘g‘rilar yurti ekanini gapirganida yosh go‘dakning jamiyatdagi asl haqiqatlarni bilmasdan aytgan gaplari onasining yana-da alamini keltirgan.

Qisqa so‘zda katta ma’no bera olish qobiliyatiga ega bo‘lgan, o‘zbek adabiyotida kitobxonlar uchun sevimli bo‘lgan adiblardan biri Abdulla Qahhor 1907-1968- yillar oralig‘ida yashab ijod qilgan. O‘zbekiston xalq yozuvchisi unvonini bilan taqdirlangan adib umri mobaynida komediya, roman, qissa janrlarida ijod qilgan bo‘lsa ham, u hikoyanavislikda ko‘proq shuhrat qozongan. Abdulla Qahhor ijodiy hayoti davomida 40 dan ziyod asar e’lon qilgan bo‘lsa, bu kitoblar orasida 30 ga yaqin hikoyalar ham bo‘lib, ular o‘zbek adabiyotida hikoya janrining badiiy ufqlarini kengaytirgani bilan ahamiyatlidir. Abdulla Qahhorning nasriy asarlari orasida “Qo‘shchinor chiroqlari” romani hamda “Sinchalak”, “O‘tmishdan ertaklar” va “Muhabbat” qissalari muhim o‘rin tutadi. Undan tashqari “Boshsiz odam”, “Anor”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Dahshat”, “Millatchilar”, “San’atkor”, “Adabiyot muallimi”, “O‘jar”, “Asror bobo” kabi o‘nlab hikoyalar yozgan. “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar”, “Tobutdan tovush”, “Ayajonlarim” nomli komediyalar muallifidir. Felyetonlar, adabiy-tanqidiy maqolalar ham yozgan Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi ham o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega. Najib Mahfuzning “Qalampir” asariga o‘xshash bu hikoyada ham jamiyat hayotidagi o‘g‘rilar fosh qilingan. Asar ho‘kizning o‘g‘irlanishi bilan boshlanadi va ellikboshi, amin, tilmoch, pristavga ho‘kiz topilishi uchun berilgan hadyalar, o‘zi og‘ir ahvolda bo‘lsa ham, yordam berishlariga umid bog‘lab, amaldorlarning ishlarini yakunlab berishi uchun berilgan ma’lum miqdordagi pul, bir qancha tovuq va tuhfalar yana-da vaziyatni chigallashtiradi.

Ellikboshi ho‘kizni juda naqd qilib qo‘ydi – go‘yo u ko‘chaga chiqsa bas – ho‘kiz topiladi. Bu “xudo yallaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo‘lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o‘ziga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma’lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib, borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qiddi. Ellikboshi beto‘xtov aminga xabar qilmoqchi bo‘lib chiqib ketdi.[5]

Shuncha porani qo’lga kiritishsa ham na bir foydali yordam berishadi, na bir ho’kizni topishga harakat qilishadi.

Barchamizga ma’lumki, Abdulla Qahhor qisqa matnda katta ma’no ifodalashi, xalq maqollaridan unumli foydalanishi bilan ham hikoyalarida keng ko‘lamli mavzuni yoritib beradi. “O‘g‘ri” hikoyasida ham quyida keltirilgan maqollar mavzuni yana-da ochib berishda muhim ahamiyatga egadir:

Quruq qoshiq og‘iz yirtadi;[6]

Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz;[7]

O‘ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan;[8]

Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.[9]

[5] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.124.
[6] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.124.
[7] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.126.
[8] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.125.
[9] Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.125.

Ikki hikoyadagi o‘xshash tomonlarga, ular ochib beradigan mavzuga to‘xtalsak, ikkisida ham qiyinchiliklarga uchragan oila, davlat amaldorlari qo‘lida o‘yinchoq bo‘lgan aholining achinarli hayoti keltirilgan. “Qalampir” da ham, “O’g’ri” da ham o‘g‘rilar haqida fikr yuritilsa ham, u yerda ko‘chma ma’no borligi asar yakunlanganidan so‘ng kitobxonga namoyon bo‘ladi. Asarlarda turmush qiyinchiliklaridan azoblanayotgan xalqning bor-budini shilayotgan, odamlarning ko‘z o‘ngida ularning cho‘ntagidan o‘g‘irlayotgan amaldorlar keskin ravishda fosh etilgan. “Qalampir” hikoyasida ro‘zg‘or sabab kundalik yegulikka o‘g‘rilik qilayotgan bosh qahramon oilasi yoki “O‘g‘ri” hikoyasidagi ho‘kizni o‘g‘irlagan inson ham o‘sha davr ijtimoiy hayotidagi qoloqliklar, yashash sharoitining og‘irligi sabab bu ishga qo‘l urishgan. Lekin birinchi hikoyada o‘g‘rilik qilgan inson jazolanishi, poralar evaziga amaldorlik kursida o‘tirayotgan xalqning cho‘ntagidan ochiqdan ochiq pul o‘marayotganlar tasvirlangan bo‘lsa, ikkinchi hikoyada ho‘kizni kim o‘g‘irlagani ma’lum bo‘lmasa ham, undan-da qimmatga tushirayotgan, ishlarni bitirib beradigan insonlarni, davlat amaldorlarini, rozi qilish uchun berilayotgan tuhfalar xalqni shunga o‘rgatib qo‘ygan edi, ya’ni amaldorlar o‘z ishini bajarishdan oldin arzgo‘ydan ma’lum miqdorda pul yoki biror arzigulik narsa olishi ham odat sifatida qabul qilinishni boshlagan edi.

XULOSA. Bu asarlar turli davlatlarda yozilgan bo‘lsa ham, ularning ikkisida poralar evaziga xalqni xonavayron qilayotgan amaldorlarning fosh qilinishi mavzusi yoritilgan. Har ikki adib tomonidan mahorat bilan yozilgan hikoyalar doimo kitobxonlar tomonidan sevilib o‘qiladi, chunki bu mavzu har zamon va makonlarda xalqlarning og‘riqli nuqtasi bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulla Qahhor. Anor. -T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

2. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/najib-mahfuz-1911-2006-misr/najib-mahfuz-qalampir-hikoya

3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulla_Qahhor

4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Najib_Mahfuz